

NAVOIY MEROSI SADOQATLI QO‘LLARDA: NAVOIYSHUNOSLIK TARAQQIYOTIDA SUYIMA G‘ANIYEVANING O‘RNI

Anvarova Durдона Abror qizi

Toshkent davlat shaqshunoslik universiteti

Amaliy fanlar fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

anvarovadurdona154@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xaydarova Ra‘no Anvarovna

Pedagogika va psixologiya kafedrası katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada taniqli adabiyotshunos, matnshunos olim, O‘zbekiston Qahramoni, professor Suyima G‘aniyevaning navoiyshunoslik fani taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi va ilmiy merosi yoritilgan. Muallif olimaning Alisher Navoiy ijodiy merosini tadqiq etish, xususan, "Majolis un-nafois" asarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish, "Munojot" asarini aniqlash va shoir dastxatini mamlakatimizga olib kelish borasidagi mashaqqatli mehnatini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada Suyima G‘aniyevaning fundamental tadqiqotlari, monografiyalari hamda jahon miqyosidagi ilmiy e‘tirofi bayon etilib, uning ustoz-shogirdlik an‘analari va yosh olimlar tarbiyasidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, Suyima G‘aniyeva, navoiyshunoslik, matnshunoslik, "Majolis un-nafois", "Munojot", qo‘lyozma, ilmiy-tanqidiy matn, dastxat, o‘zbek mumtoz adabiyoti, fundamental tadqiqot.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются научное наследие и огромный вклад известного литературоведа, текстолога, Героя Узбекистана, профессора Суйимы Ганиевой в развитие навоиведения. Автор анализирует кропотливый труд ученого по исследованию творческого наследия Алишера Навои, в частности, создание научно-критического текста произведения «Маджалис ун-нафаис», обнаружение труда «Муноджот» и возвращение автографа поэта на Родину. Также в статье рассматриваются фундаментальные исследования, монографии Суйимы Ганиевой, её признание на международном уровне, роль в сохранении традиций наставничества и воспитании молодых ученых.

Ключевые слова: *Алишер Навои, Суйима Ганиева, навоиведение, текстология, «Маджалис ун-нафаис», «Муноджот», рукопись, научно-*

критический текст, автограф, узбекская классическая литература, фундаментальное исследование.

ABSTRACT

This article highlights the monumental scientific heritage and invaluable contribution of the renowned literary scholar, textual critic, Hero of Uzbekistan, Professor Suyima Ganiyeva, to the development of Navoi studies (Navoiyashunoslik). The author analyzes the scholar's meticulous research on the creative legacy of Alisher Navoi, particularly her work on creating the scholarly-critical text of "Majalis un-Nafais", discovering the manuscript of "Munajat", and bringing the great poet's autograph back to the homeland. Furthermore, the paper examines Suyima Ganiyeva's fundamental researches, monographs, and global academic recognition, while emphasizing her role in sustaining mentor-disciple traditions and nurturing a new generation of young scholars.

Key words: *Alisher Navoi, Suyima Ganiyeva, Navoi studies, textual criticism, "Majalis un-Nafais", "Munajat", manuscript, scholarly-critical text, autograph, Uzbek classical literature, fundamental research.*

KIRISH

So‘z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning qoldirgan ijodiy merosini o‘rganish, undagi teran falsafiy fikrlarni anglash va bebaho hikmatlarning mohiyatini tushunib yetish, shuningdek, ularni xalqimizga yetkazib berish har bir davr adabiyotshunosligi oldidagi eng muhim va shu bilan birga eng mas‘uliyatli vazifalardan biridir. Navoiyshunoslik fani esa yuksak fidoyilik, sadoqat va sabr-toqat talab qiladigan o‘ta murakkab sohadir. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixida ushbu mashaqqatli yo‘lda qat‘iy irodasi bilan fanning eng og‘ir yukini yelkasiga olgan zahmatkash olim va olimalarning o‘rni beqiyos.

Navoiyshunoslik taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirgan siymolar haqida so‘z borar ekan, shubhasiz, birinchi navbatda O‘zbekiston qahramoni, professor Suyima G‘aniyeva ko‘z oldimizda gavdalanadi. Suyima G‘aniyeva haqida gapirganda so‘z va ta‘rif axtarishga aslo hojat yo‘q: so‘z ham, ta‘rif ham o‘z-o‘zidan tug‘ilaveradi. Chunki XX asr o‘zbek matnshunosligi, navoiyshunosligi va mumtoz adabiyotimiz matnlari nashr ishlarini Suyima G‘aniyeva nomi va faoliyatisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham zehn-u zakovati yuksak bu olimamizning ishlari faqat mamlakatimizda emas, balki Rossiya, Turkiya, Eron, Tojikiston, Ozarbayjon kabi xorijiy o‘lkalarda ham yaxshi ma‘lum.¹

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент давлат шарқшунослик институти. *Суйима Ганиева библиография.* — Тошкент, 2002. — 3-б.

Hayoti qadimiy qo‘lyozmalar, o‘tmishda yaratilgan mo‘tabar kitoblarga ko‘z nurlarini bag‘ishlash hamda ularni xalqqa yetkazib berish farog‘ati ila kechgan Suyima G‘aniyevaning adabiyotga bo‘lgan chinakam muhabbati talabalik yillarida uyg‘onadi. Avvaliga ustozlari tavsiyasi bilan boshlangan she‘r yod olish va ifodali o‘qish mashg‘ulotlari keyinnchalik uni adabiyotga butunlay rom etib qo‘yadi.² Tirishqoq va zukko Suyima 1953-1956-yillarda Leningrad davlat universiteti sharq fakulteti asperanturasida tahsil olib, 1956-yili “Majolis un-nafois”ning III va IV majlislari ilmiy tanqidiy matni va adabiy tahlili” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi va dissertatsiyaning avtoreferati kitob hoida chop etiladi. 1961-yil Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarining ilmiy tanqidiy matni arab yozuvida nashr etilganida bu kitobga Moskva, Leningrad, Eron, Afg‘oniston, Turkiya olimlari bu kitobga katta qiziqish bildiradi. Shundan so‘ng olimada bu asarni rus tiliga tarjima qilish istagi uyg‘onadi hamda qisqa fursatda tarjimani yakunlashga muvaffaq bo‘ladi. Keyinchalik “Majolis un-nafois” haqida rus, ingliz, fors, olomon, fransuz tillarida ellikka yaqin maqolasi chop etiladi. Bundan tashqari uning rahbarligida Navoiy asarlarining to‘qqiz, o‘n yetti, o‘n to‘qqiz va yigirma jildli asarlari nashr etildi. Suyima G‘aniyeva Alisher Navoiyning dastxatini Tehronning “Hoki Guliston” nomli muzey fondidan Vatanimizga keltirdi. Hazratning uzoq yillar davomida ilm-fanga noma‘lum bo‘lib kelgan “Munojot” asarini topib nashr ettirgan

Suyima G‘aniyeva o‘zbek mumtoz adabiyoti va uning jahon madaniyatidagi o‘rni to‘g‘risida fundamental tadqiqotlar, 14ta monografiya, 350dan ortiq ilmiy va nazariy maqolalar 20 dan ortiq o‘quv qo‘llanmalar muallifi. Uning dastlabki kitobi hazrat Navoiyning sermashaqqat hayot yo‘li, izlanishlari, adabiy-ilmiy hamda davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyatini ommabop usulda, yangi manbalardan foydalanib bayon etilgan “Alisher Navoiy hayoti va ijodi”, “Alisher Navoiy ijodidagi insonparvarlik g‘oyalari”, “Navoiy g‘azallarida zodagonlik motivlari”, “Navoiyning vasiyati”, “Navoiy avtografi” kitoblarini o‘quvchilarga taqdim qilgan. Professorning Alisher Navoiy merosini tadqiq etishga bag‘ishlangan asarlari Rossiya, Yaponiya, Eron, Indoneziya kabi dunyoning bir qator mamlakatlarida nashr qilinib, ilmiy jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan.

XULOSA

Muhtarama olimamizning ko‘p yillik mehnati, ilm-fan rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi davlatimiz tomonidan yuqori baholandi. 1999-yilda Suyima G‘aniyeva “El-

² “Yoshlik” jurnalining 2012-yil 1-soni

yurt xizmati” ordeni, 2008-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi. 2015-yilda esa “O‘zbekiston qahramoni” unvoni berildi.

Suyima G‘aniyeva ustozlariga qanchalar sadoqatli bo‘lsa, shogirdlariga ham shunchalik e’tiborli va mehribon edi.³ Olima bilim dargohlarida ilmiy tajribalarini yoshlarga adabiy meros orqali, donishmand mutafakkirlarimiz va adiblarimizning ibratli hayotlari orqali ta’sir ko‘rsata olish salohiyatini namoyon etish orqali juda ko‘p insonlarning ko‘lidan joy olgan. Uning milliy adabiyotimiz nufuzi, mavqei yuksaltirishda ko‘rsatgan fidoyiligi, sadoqat yo‘li avlodlar uchun o‘rnak, bugungi yosh olimlar uchun maktab vazifasini o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент давлат шарқшунослик институти. Суйима Ганиева библиография. — Тошкент, 2002. — 3-4-б.
2. “Yoshlik” jurnalining 2012-yil 1-soni
3. <https://oyina.uz>

³ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент давлат шарқшунослик институти. Суйима Ганиева библиография. — Тошкент, 2002. — 4-б.